

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI



MAKROIQTISODIYOT-2
FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	400000	Biznes boshqaruv va xuquq
Ta‘lim sohasi:	410000	Biznes va boshqaruv
Mutaxassislik:	70410108	Mintaqaviy iqtisodiyot



TDSHU Tashqi siyosat va
xalqaro iqtisodiy
munosabatlar instituti
direktori:

2025-yil "___" _____

(imzo)

G. Arifjonov

“Iqtisodiyot va menejment” kafedrası mudiri:

2025-yil "___" _____

(imzo)

Z.A. Kadirova

TDSHU ARM direktori _____

M.M. Yuldasheva

Fan/modul kodi MAKIQ1106	O'quv yili 2025/2026	Semestr 1	ECTS — Kreditlar 6	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek, rus		Haftadagi dars soatlari 6	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Makroiqtisodiyot-2	72	108	180
2.	<p style="text-align: center;">I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanning maqsadi - magistrantlarda mamlakatning dinamik umumiy muvozanatini o'rnatishda ta'sir omillarini tushuntirish, samarali iqtisodiy faoliyatni tashkil etishga yo'naltirilgan jarayonlarning nazariy va amaliy asoslarini o'rganishni tizimli tartibini shakllantirish, talabalarning fan doirasida ta'lim olishlarini tashkil qilish va bu borada zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, auditoriya soati va mustaqil ta'lim jarayonlarida ta'lim olishlarini tashkil etishda zaruriy ko'nikmalarni hosil qilish va provardida makroiqtisodiy siyosat doirasidagi bilimlarni yetkazishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi - Ushbu fanda uy xo'jaliklari, firmalar va hukumat kabi iqtisodiy agentlar tomonidan vaqtlararo optimallashtirishga asoslangan dinamik umumiy muvozanat modellarini ketma-ketligidan foydalangan holda zamonaviy makroiqtisodiyotni o'rganib chiqiladi.</p> <p>Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi top 300 talik ro'yxatga kiruvchi Xitoyning Zhejiang universiteti (THE=55, QS=44) xorijiy tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi. http://www.ccc.zju.edu.cn/cecen/37513/list.htm</p> <p style="text-align: center;">II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p style="text-align: center;">II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p style="text-align: center;">1-mavzu. Makroiqtisodiyot-2 faniga kirish.</p> <p>Makroiqtisodiy tahlil, makroiqtisodiy tahlilning vositalari, turli davrlar uchun ma'lumotlarning solishtirma tahlili, mamlakatlararo yoki o'zaro tahlil, mamlakatlararo tahlilni amalga oshirish negizida mamlakatlardagi iqtisodiy holatni taqqoslash.</p> <p>2-mavzu. Makroiqtisodiy tahlilda real sektor.</p> <p>Iqtisodiyotning real sektori tushunchasi, real sektorning iqtisodiyotdagi o'rnini va ahamiyati, real sektor va iqtisodiy o'sish, real agregatlar, nominal agregatlar, iste'mol narxlarini indeksi.</p> <p>3-mavzu. Makroiqtisodiy tahlil va prognozlashning axborot ta'minoti.</p> <p>Ijtimoiy-iqtisodiy axborotlarning shakllanishi va ularning turlari, Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar axborot ob'ekti sifatida. Makroiqtisodiy tahlil va prognozlashda axborot texnologiyalaridan foydalanish yo'nalishlari.</p>			

4-mavzu. Real iqtisodiy davrlar nazariyasi.

Real iqtisodiy davrlar nazariyasi, "Real yalpi talab - real yalpi taklif" modelidagi davriy tebranishlar, Mehnat taklifidagi vaqtincha almashtirish, Soliq-byudjet siyosatidagi o'zgarishlar. ishlab chiqarish texnologiyasida keskin o'zgarishlar.

5-mavzu. Jamg'arish va iste'mol.

Jamg'arish funksiyasi va grafigi. Foiz stavkasi va jamg'arish, xususiy, davlat va tashqi dunyo jamg'armalari, iste'molga (ARS) va jamg'arishga o'rtacha moyillik (APS), iste'molga (MRS) hamda jamg'arishga (MPS) chegaraviy moyillik. O'zbekiston Respublikasida iste'mol va jamg'arish jarayonlari xususiyatlari.

6-mavzu. Fiskal hisoblar va ularning tahlili.

Rag'batlantiruvchi va cheklovchi fiskal siyosat, yopiq va ochiq iqtisodiyotda davlat xarajatlari multiplikatori, soliq multiplikatsiyasi mexanizmi, soliq multiplikatori, balanslashgan budjet multiplikatori.

7-mavzu. Investitsiya.

Investitsiyalarning neoklassik modeli, bir davrli model va ko'p davrli model. kapitalning istalgan zaxiralarga moslashish xarajatlarini hisobga olish modeli, soliq siyosatining firmalarning investitsion qarorlariga ta'siri. Tobin nazariyasi, investitsion loyihalarni kapitalning chegaraviy samaradorligi bo'yicha saralash va investitsiya talabining funksiyasini aniqlash.

8-mavzu. Ijtimoiy jarayonlar va axoli turmush darajasining o'sishini prognozlash

Ijtimoiy jarayonlarning xususiyatlari va ularni ifodalovchi ko'rsatkichlar. Ijtimoiy sohalarni prognozlash usullari va modellari, ularning o'ziga xos xususiyatlari. Axoli turmush dinamikasini baxolovchi ko'rsatkichlar, ushbu ko'rsatkichlarni o'zgarish dinamikasi.

9-mavzu. Pul va inflyatsiya.

Pulning miqdoriy nazariyasi. Fisher samarasi. Senoraj, Fridman modeli, Inflyatsion xarajatlar. Klassik dixotomiya. Inflyatsiya darajasi, Pulning funksiyalari, ularning ko'rinishlari Pul agregatlari. Likvidlilik. Pulning miqdoriy tenglamasi, inflyatsion soliq, Monetar siyosatda inflyatsiyaga moyillik. Kidland - Preskott modeli.

10-mavzu. Pul-kredit sektorining iqtisodiy tahlili

Pul kredit sektorining tarkibi. Pul vositalarining oqimi. Tahliliy hisobot.

Moliyaviy tashkilotlar. Davlatning to'lov vositalarini yaratuvchi moliyaviy muassasalar. Pul yaratmaydigan moliyaviy muassasalar. Pul-kredit nazorat qiluvchi va pul depozit banklari. Zahira pullari. Xorijiy valyuta zahiralari tahlili. Pul massasi, davlat sektorining iqtisodiy tahlili.

11-mavzu. Noaniqlik va xavf sharoitida iste'molchi tanlovi

Iste'molchi tanlovi va uning xususiyatlari. Tovar va xizmatlarning zamonaviy bozorlari. Iste'molchi tanlovi va iste'molchi talabining xususiyatlari.

Akselerator multiplikatori. Rag'batlantiruvchi pul-kredit siyosati sharoitida uzoq muddatli muvozanatga o'tish jarayoni. Rag'batlantiruvchi fiskal siyosat sharoitida uzoq muddatli muvozanatga o'tish jarayoni.

12-mavzu. Keyns modellari va Fillips egri chizig'i

Keynsning makroiqtisodiy muvozanat nazariyasi. Haqiqiy va rejalashtirilgan xarajatlar. Modelni tuzishdagi asosiy shartlar. Sof eksport funksiyasi. Importga chegaraviy moyillik. Modelda makroiqtisodiy muvozanatga erishish mexanizmi. Tovar moddiy zahiralarning rejalashtirilmagan o'zgarishlari. Haqiqiy investitsiyalar va rejalashtirilgan investitsiyalar tengligi. Filippi egri chizig'i.

13-mavzu. Robert Solouning o'sish modeli

Iqtisodiy o'sish: ba'zi muhim faktlar. R.Solou modeli. Iqtisodiy o'sish manbalarini hisoblash. Solou modelining kamchiliklari va ularni bartaraf etish usullari. Kapitalning ortib boruvchi intensivligi. Aktivlarning ortib borishi. Texnologik o'sish sur'ati. Iste'molning o'sish sur'ati. Oltin qoidaga mos keladigan barqaror holatga o'tish.

14-mavzu. Ochiq iqtisodiyot.

Ochiq iqtisodiyotdagi milliy daromad. To'lov balansi. Nominal ayirboshlash kursi. Real ayirboshlash kursi. Xarid qobiliyati pariteti. Mandell - Fleming modeli. Ayirboshlash ko'rsatkichlarining turlari; Mandell - Fleming modelida iqtisodiy siyosat multiplikatorlari. Mandel - Fleming modelidagi "Daromad- valyuta kursi" koordinatlarida umumiy muvozanat.

15-mavzu. O'zgarmas kattaliklar va nomukammal ma'lumotlarga ega iqtisodiyot tahlili.

Qisqa muddatli yalpi taklif modellari. O'zgarmas (qattiq) ish haqi modeli. Nomukammal ma'lumotlar modeli. O'zgarmas (qattiq) narx modeli. Real ish haqining davriy tebranishlari. Fillips egri chizig'i va yalpi taklif. Kaplin-Spalber modeli.

II. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar "Makroiqtisodiyot-2" fanidan ma'ruza daralarida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, amaliy mashg'ulotlar mavzulari bo'yicha tayyorgarlik ko'rish jarayonida qo'shimcha adabiyotlar va iqtisodiy ma'lumotlar bilan tanishish orqali qo'shimcha bilim va xulosalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Natijada ularning bilim doiralari ilmiy jihatdan asoslangan holda kengayadi.

"Makroiqtisodiyot-2" fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlarga tavsiya etiladigan mavzular:

1. Makroiqtisodiyot-2 faniga kirish.
2. Makroiqtisodiy tahlilda real sektor.
3. Makroiqtisodiy taxlil va prognozlashning axborot ta'minoti.
4. Real iqtisodiy davrlar nazariyasi.
5. Jamg'arish va iste'mol.
6. Fiskal hisoblar va ularning tahlili.
7. Investitsiya.
8. Ijtimoiy jarayonlar va axoli turmush darajasining o'sishini prognozlash.
9. Pul va inflyatsiya.
10. Pul-kredit sektorining iqtisodiy tahlili.

11. Noaniqlik va xavf sharoitida iste'molchi tanlovi.
12. Keyns modellari va Fillips egri chizig'i
13. Robert Solouning o'sish modeli
14. Ochiq iqtisodiyot
15. O'zgarmas kattaliklar va nomukammal ma'lumotlarga ega iqtisodiyot tahlili.

III. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

- o'tilgan mavzuni chuqur o'rganishlari uchun darslik, o'quv materiallari bilan faol ishlash;

- ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar va imtihonlarga oldindan tayyorgarlik ko'rish, vaqtdan unumli foydalanish;

- fan (modul)lar bo'yicha mustaqil ta'lim topshiriqlarini belgilangan muddatlarda taqdim etishi;

- mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko'chirmakashlik)ga yo'l qo'ymasligi;

- kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilishi, o'ziga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarishi.

Mustaqil ta'limni tashkil etishda fanning xususiyatini inobatga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- mavzu yuzasidan tahliliy ma'lumot (esse) tayyorlash;

- badiiy-ijodiy ishni bajarish;

- kurs ishi (loyihasi)ni bajarish;

- aniq mavzu bo'yicha tahliliy taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash;

- berilgan muammoni keng tahlil qilish, unga ta'rif va xulosalarni berish;

- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash orqali loyihalar ishlash ko'nikmasini shakllantirish;

- ilmiy maqola, tezislar va ma'ruza tayyorlash;

“Makroiqtisodiyot-2” fanidan mustaqil ish sifatida quyidagi mavzular berilishi tavsiya etiladi:

1. Makroiqtisodiy tahlil mohiyati
2. Real iqtisodiy davrlar nazariyasi
3. Jamg'arish va iste'mol
4. Fiskal hisoblar va ularning tahlili
5. Investitsiya
6. Pul va inflyasiya
7. Pul-kredit sektorining iqtisodiy tahlili
8. Noaniqlik va xavf sharoitida iste'molchi tanlovi
9. Keyns modellari va Fillips egri chizig'i

	<p>10. Robert Solouning o'zlash modelini</p> <p>11. Ochiq iqtisodiyot</p> <p>12. O'zgarimas kattaliklar va nomukammal ma'lumotlarga ega iqtisodiyot tahlili</p> <p>13. Fiskal siyosat: budjet defitsiti va davlat qarzi</p> <p>14. Abadiy davomiylik va bir davrda yashayotgan avlodlar modeli</p> <p>15. Makroiqtisodiy tahlilni amalga oshirishdagi muammolar</p>
3.	<p>IV. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fanni o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida magistrant:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Organilayotgan modellar shakllanishining nazariy asoslarini, ulardagi elementlarning o'zaro bog'liqligi va bog'lanishlari. Modellarining asosiy qoidalari va xulosalarining iqtisodiy maqsadga muvofiqligi haqida tasavvurga ega bo'lishi; • Makro tartibga solish siyosatini ishlab chiqishni asoslaydigan makroiqtisodiy tadqiqotlar metodologiyasi. Makroiqtisodiy va ijtimoiy ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va taxlil qilishning zamonaviy usullari. Standart nazariy modellar yordamida makroiqtisodiy xodisalar va jarayonlarni tahlil qilish usullari va uslublari. Makroiqtisodiy jarayonlar va xodisalarni tavsiflovchi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash va tahlil qilishning zamonaviy usullarini bilishi va undan foydalana olishi; • Iqtisodiy, ijtimoiy va boshqaruv ma'lumotlarining manbaalaridan foydalanish. Ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlar, xodisalar bo'yicha ichki va tashqi statistika ma'lumotlarini tahlil qilish va sharhlash. Ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar tendensiyasini aniqlash. Olingan vazifa bo'yicha ma'lumot qidirish, iqtisodiy muammolarni hal qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish. Makro darajada iqtisodiy, nazariy modellar asosida iqtisodiy agentlarning xatti-xarakatlarini, iqtisodiy jarayonlar va xodisalarning rivojlanishini prognoz qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.
4.	<p>V. TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA METODLARI:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • jamoa bo'lib ishlash.
5.	<p>VI. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha testni topshirishi lozim.</p>
6.	<p>VI. ASOSIY VA QO'SHIMCHA O'QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI</p> <p>Asosiy adabiyotlar</p> <p>1. M.Eshov, L. Amirov, M.Asqarova. Dinamik makroiqtisodiyot. Darslik. Toshkent 2022-y.</p> <p>2. A. D. Гарбузова, Макроэкономика. Практикум [Электронный ресурс] учеб.-метод. пособие / А. Д. Гарбузова.– Минск : БГУ, 2021</p>

	<p>3. G'.E.Zaxidov, M.T.Asqarova, Z.A. Djumayev, L.F.Amirov, H.A. Hakimov. Makroiqtisodiyot. Darslik. -T.: 2019. - 290 bet.</p> <p>4. S.A. Nabiyeva Dinamik makroiqtisodiyot. Darslik. 2023. 233 b.</p> <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <p>1. Sh.M. Mirziyoyev. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. - Toshkent: O'zbekiston, 2024.</p> <p>2. Sh.M. Mirziyoyev Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 2023</p> <p>3. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekistonda erkin va faravon yashaylik. 5-jild.- Toshkent: O'zbekiston, 2023.</p> <p>4. Sh.M. Mirziyoyev Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlar uchun. -Toshkent: O'zbekiston, 2022.</p> <p>5. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. - Toshkent: O'zbekiston, 2022.</p> <p>6. N.B.Xolmatov, N.A.Imomova "Makro va mikroiqtisodiyot". O'quv qo'llanma. Toshkent «Tafakkur avlodi» 2020.</p> <p>Scopusdan maqolalar</p> <p>1. Lauren Perez, CEPF. Are Banks Open Today? Bank Holidays in 2023 & 2024 https://smartasset.com/checking-account/are-banks-open-today</p> <p>2. Ashley Kosciolk. Cunard to name new cruise ship Queen Anne; debut set for 2024 https://thepointsguy.com/news/cunard-queen-anne-set-sail-2024/</p> <p>Axborot manbalari</p> <p>3. www.mf.uz - O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi</p> <p>4. www.idm.uz - O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi</p> <p>5. www.stat.uz- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi</p> <p>6. www.customs.uz - O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi</p> <p>7. www.cbu.uz- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki</p> <p>8. www.cer.uz - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi</p> <p>9. www.undp.uz</p> <p>10. www.cisstat.com</p>
6.	<p>Fanning o'quv dasturi "Iqtisodiyot va menejment" kafedrasida ishlab chiqilgan va 2025 yil "27" 06 dagi 21 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.</p> <p>O'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2025 yil "28" 06 dagi 11 — sonli bayoni bilan tasdiqlangan.</p>
7.	<p>Fan/modul uchun mas'ul:</p> <p>Nazarova F.H. – TDSHU "Iqtisodiyot va menejment" kafedrası professorı, iqtisodiyot fanlari doktori</p>

8.	Taqrizchilar: Sultanova L.Sh. - O'zbekiston Milliy Universiteti "Makroiqtisodiyot" kafedrasida dotsent, i.f.n. Kamilova M.X.— TDSHU "Tashqi iqtisodiy faoliyat" kafedrasida i.f.d., dotsent
----	--